

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON BADIY AKADEMIYASI
KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI MILLIY RASSOMLIK
VA DIZAYN INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”

O‘zBA Bosh ilmiy kotibi

F.A.Abidjanova

“09” 02 2021 yil



“KELISHILDI”

Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim

vazirligi

“10” 02 2021 yil



“KIRITDI”

MRDI rektori

N.Sayfullayev

“09” 02 2021 yil



KASBIY (IJODIY) IMTIHONLAR DASTURI VA
BAHOLASH MEZONLARI

“Chizmasvir”, “Kompozitsiya” fanlari

(Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tasarrufidagi oliy ta‘lim muassasalari uchun ishlab
chiqilgan)

5150800-Rangtasvir: turlari bo‘yicha

5150801-Rangtasvir (dastgohli)

TOSHKENT - 2021 YIL

Dastur Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti o'quv uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va maqullangan. 2021 yil "29" iyun dagi "10" sonli majlis bayoni

Tuzuvchi:

MRDI Dastgohli rangtasvir kafedrası professori,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi,
O'zbekiston Badiiy akademiyasi, akademigi
S.A. Abdullaev

Taqrizchilar:

Toshkent arxitektura va qurilish instituti arxitektura
fanlari doktori, professor D.A.Nazilov

MRDI Dastgohli rangtasvir kafedrası mudiri:
E.X.Xaitov

KIRISH

5150800-Rangtasvir: turlari bo'yicha, 5150801-Rangtasvir: dastgohli ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'qitiladigan "Chizmatasvir", "Kompozitsiya" fanlari bo'yicha tuzilgan ushbu sinov dasturi DTS, malaka talablari asosida ishlab chiqilgan. Respublikamizda badiiy ta'lim islohotlarini yanada chuqurlashtirish, malakali mutaxassislar; rangtasvirchi rassom kadrlarini tayyorlash borasida, ularning kasbiy xususiyatlarni rivojlantiruvchi shuningdek, iqtidorli ijodkor rassom, ko'nikmalarini o'zida namoyon qiluvchi va ushbu sohaga qiziqish uyg'ota oluvchi, o'z yo'nalishini topishda mazkur fanlar katta ahamiyatga ega.

2. Fanning maqsad va vazifalari.

5150800-Rangtasvir: turlari bo'yicha, 5150801-Rangtasvir: dastgohli ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'qitiladigan fanlarning dolzarbligi, hozirgi kundagi jamiyatni tezkor rivojlanish jarayonlarida ishlab chiqarish va ta'lim sohalarini bozor iqtisodiyoti tamoyillari asosida uzviy bog'lash, isloh qilishdagi ahamiyati va o'rni ochib beriladi.

"Chizmatasvir", "Kompozitsiya" fanlari bo'yicha tuzilgan ushbu sinov dasturi fani bo'yicha tuzilgan sinov dasturi hamda mezonlarining murakkabligiga qo'yiladigan talablar ixtisoslashtirilgan san'at maktablari hamda maktab-internatlarida o'qitiladigan fanlar va dasturlarida belgilangan vazifalar asosida ishlab chiqilgan.

Respublikamizda badiiy ta'lim islohotlarini yanada chuqurlashtirish, malakali mutaxassislar; rangtasvirchi rassom kadrlar tayyorlash borasida, ularning kasbiy xususiyatlarni rivojlantiruvchi shuningdek, iste'dodni estetik faoliyat orqali namoyon qila olish ko'nikmalarini shakllantirish, soha bo'yicha o'z yo'nalish va uslubiga ega bo'lishda mazkur fanlar katta ahamiyatga ega.

3. Abituriyent bilimiga qo'yiladigan talablar.

1. 5150800-Rangtasvir: turlari bo'yicha, 5150801-Rangtasvir: dastgohli ta'lim yo'nalishi bo'yicha kunduzgi yoki sirtqi ta'lim shakliga o'qishga kiruvchi abituriyentlar kasbiy (ijodiy) imtihonlarni "Chizmatasvir", "Kompozitsiya" fanlaridan topshiradi.

2. "Chizmatasvir" fanidan "Odam portreti qo'llari bilan" uslubiy fonda qo'yiladi. Abituriyent odam portretini qo'llari bilan chizish orqali uning tashqi ko'rinishi holatiga hamda qomatning anatomik tuzilishiga e'tibor qaratish lozim. Bundan tashqari qomatning plastik yechimiga hamda uning xarakterlarini ochib berishi, soya – yorug' tomonlariga engil tuslar berishi va bu bilan chizmatasvir bo'yicha ketma-ketlikka rioya etishi, ijodiy ishni bajarishda e'tibor bilan yuksak estetik did asosida to'liq tugallangan holatga etkazishi talab qilinadi.

3. Kasbiy (ijodiy) imtihonda "Chizmatasvir" fanidan amaliy ishni bajarish uchun 160 daqiqa vaqt ajratiladi.

4. Kasbiy (ijodiy) imtihonda abituriyent tomonidan bajarilgan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:

№	Imtihon topshiriqlari va baholash mezonlari	Ball
1.	Chizmatasvir fani bo'yicha amaliy ish	Jami 60 ball
	Naturaning kompozitsion joylashuvi	6 ball

Proporsiyalarni to‘g‘ri topilishi	6 ball
Rakurs holatining topilish darajasi	6 ball
Natura qismlarining o‘zaro nisbiy joylashuvi	6 ball
Yorug‘ va soyani ishlanishidagi mahorati	6 ball
Plastik anatomiyaning odam qomatiga mosligi	6 ball
Tasvir naturaga o‘xshashligi xarakterli xususiyatini topilganligi	6 ball
Naturaning perspektiv (fazoviy) holati	6 ball
Naturaning atrof muhit bilan bog‘langanligi	6 ball
Chizmasvirning tugallanish darajasi	6 ball

5. “Kompozitsiya” fanidan abituriyent berilgan mavzu bo‘yicha topshiriqni akvarel, guash, tempa, akrillardan birida ishlashni erkin tanlaydi. Kompozitsiya g‘oyasi, mazmuni, mohiyati mutaxassislikka xosligi, kompozitsiya yechimini mavzu asosida topilganligi, badiiy va g‘oyaviy ifodada chizmasvir va ranglar vositasidan foydalanish darajasi, shakl va obrazlar plastik yechimini topilganligi, kompozitsion vazifasidagi asar chuqurligining perspektiv yechimi, kompozitsiya markazining ifodali topilganligi, mavzuning mazmuni va g‘oyasini ochib berishda koloritdan foydalanilishi, kompozitsiyada mazmun, g‘oya – fikrning yoritilishi va tugallanish darajasi kabi masalalarini yoritib berish talab etiladi.

6. Kasbiy (ijodiy) imtihonda “Kompozitsiya” fanidan berilgan mavzu uchun 160 daqiqa vaqt ajratiladi.

7. Kasbiy (ijodiy) imtihonda abituriyent tomonidan bajarilgan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:

T/r	Imtihon topshiriqlari va baholash mezonlari	Ball
1.	Kompozitsiya fani bo‘yicha amaliy ish	Jami 66 ball
	Kompozitsiyaning formatga nisbatan joylashtirilishi	4 ball
	Kompozitsiyaning mavzu jihatdan original topilganligi	4 ball
	Asarning kompozitsion g‘oyaviy mazmuni	4 ball
	Kompozitsiya g‘oyasi, mazmuni, mohiyati mutaxassislikka xosligi	4 ball
	Badiiy va g‘oyaviy ifodada ranglardan to‘g‘ri foydalanish	4 ball
	Asar qahramonining obrazini plastik yechim orqali topish	4 ball
	Tasvirning ta’lim yo‘nalishiga mosligi	4 ball
	Kompozitsiya markazini to‘g‘ri topilganligi	4 ball
	Kompozitsiyada yorug‘ va soyani ishlanishidagi mahorati	4 ball
	Kompozitsiyaning perspektiv (fazoviy) holati	4 ball
	Kompozitsiyada ranglar bilan ishlash jarayonida yorug‘ – soyalarning bir-biriga mutanosibligi	4 ball
	Kompozitsiyada to‘q va och tusalarning to‘g‘ri topilganlik darajasi	3 ball
	Kompozitsiyada issiq va sovuq ranglarning uyg‘unlashuv darajasi	3 ball
	Kompozitsiyada ranglar orqali atrof muhit bilan uzviy	3 ball

bog‘langanligi	
Kompozitsiyada ranglarning o‘zaro mutanosibli va yaxlitligi darajasi	3 ball
Kompozitsiyada ranglarni perspektivadan o‘zgarish holati	3 ball
Kompozitsiyada rakurs va fazoviy holatining ishlanish darajasi	3 ball
Mavzuning mazmuni, ma’nosi, hamda ranglar uyg‘unligi	2 ball
Ishlanish mahorati va uning tugallanish darajasi	2 ball

4. Kasbiy (ijodiy) imtihon o‘tkazish tartibi.

5150800-Rangtasvir: turlari bo‘yicha, 5150801-Rangtasvir: dastgohli ta’lim yo‘nalishi kunduzgi ta’lim shakliga hujjat topshirgan abituriyentlar jadval asosida belgilangan kunlarda ikki juftlik vaqt davomida kompozitsiyadan berilgan mavzu asosida bajaradi. Qabul komissiyasi tomonidan shakllantirilgan guruhlar kesimida kasbiy (ijodiy) imtihon maxsus jihozlangan auditoriyalarda o‘tkaziladi. Abituriyentlar maxsus tekshiruvdan o‘tkazilib, belgilangan tartib qoidalarga amal qilgan holda bino va auditoriyalarga kiritiladi.

3. Kasbiy (ijodiy) imtihonlar natijalar bo‘yicha apellyatsiya tartibi

Abituriyentlar kasbiy (ijodiy) imtihonlarning natijalariga ko‘ra, natijalar e‘lon qilingan kundan boshlab 24 soat ichida oliy ta’lim muassasasi qabul komissiyasining Apellyatsiya kengashiga murojaat qilishlari mumkin.

Arizalar faqat ularning baholari va ijodiy ishlari bilan bog‘liq bo‘lgan taqdirda qabul qilinadi, ammo boshqa abituriyentlarning ijodiy ishlari to‘g‘risida shikoyatlar qabul qilinmaydi.


Uslubiy ko'rsatmalardan namunalar

CHIZMATASVIR FANI

5150801-Rangtasvir:dastgohli

Vazifa: Portret qo'llari bilan.

Namunalar:



KOMPOZISIYA FANI

5150801-Rangtasvir:dastgohli

Vazifa: Berilgan mavzu

Namunalar:

